

YURTIMIZDA DINGA BO'LGAN MUNOSABAT

Meylikova Go'zal Yoqubovna

Jo'rayev Akram

Termiz Davlat Universiteti Filologiya o'zbek tili 1 - bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19313267>

Annotasiya. Ushbu maqolada din va qonun o'rtasidagi munosabatlar, qolaversa, jamiyatda diniy e'tiqod erkinligining huquqiy asoslari tahlil qilinadi hamda shaxsning vijdon erkinligi, diniy qarashlarni erkin tanlash va amalga oshirish huquqi, shuningdek, xalqaro me'yorlar asosida yoritiladi.

Diniy bag'rikenglik va huquqiy madaniyatni shakllantirishda e'tiqod erkinligining o'rni ochib berilishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Din, Ro'za, Qurbon hayiti, masjid, e'tiqod erkinligi, qonun ustuvorligi, din va davlat munosabatlari, konstitutsiya, qonun ustuvorligi, xalqaro konvensiyalar.

Mustaqillik yillarida yurtimiz qadriyatlarini tiklash bo'yicha muhim tadbirlar amalga oshirilgani sir emas. Bu nafaqat, o'zligimizni anglash, tariximizga xolisona qarash, bebaho ma'naviyatimizni tiklashga hamda islom diniga bo'lgan e'tibor kuchaydi.

Xalqimizning bebaho an'alaridan biri hisoblangan Navro'z bayramining tiklanishi, Ro'za hamda Qurbon hayitlarining rasman umumxalq bayrami sifatida dam olish kuni deb belgilanishi ma'naviy poklanish yo'lidagi jiddiy harakatlarning amaliy ko'rinishi sifatida o'z ta'sirini korsatdi.

Mustaqillikka erishganimizga qadar mamlakatimizda faqat 87 ta masjid faoliyat ko'rsatgan. Bugun O'zbekistonda 2000 dan ziyod masjid faoliyat ko'rsatmoqda. Mustaqillikdan so'ng, jamiyat a'zolarining vijdon erkinligini ta'minlash, ularning o'z diniy marosim va urf-odatlarini ado etishlari, bajarishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlar vujudga keltirildi.

Masalan, 1980-yilda sobiq Ittifoq bo'yicha faqat 17 kishi muqaddas Haj ziyoratiga borgan bo'lsa, 2001 - yilning o'zidayoq 4 mingdan ziyod yurtdoshlarimiz bu saodatga musharraf bo'lganlar. Mustaqillikka erishganimizdan buyon o'tgan qisqa vaqt ichida minglab yurtdoshlarimiz Haj va Umra ziyoratini amalga oshirish baxtiga muyassar bo'ldilar.

O'zbekiston musulmonlari idorasining sobiq raisi muftiy Abdurashid qori Bahromov bu haqda shunday deydilar: «Ilgarilari yurtimizda istibdod mafkurasi hukmronlik qilgan davrlar, haj safariga borish juda qiyin bo'lib, safar ijzati nihoyatda past darajada cheklangan edi. Taassufki, uzoq yillar davomida diyorimiz musulmonlarining bu boradagi orzu niyatlariga yetarli darajada e'tibor berilmadi.

Natijada, ko'plab ulamolarimiz va bir qancha imon-e'tiqodli kishilarimiz yetmish yillar mobaynida tilak va orzular qilib, hajga bora olmasdan, armon bilan dunyodan ketdilar. Endilikda ming-minglab mo'min-musulmonlar muborak haj safariga borishga musharraf bo'lmoqdalar va bo'ladilar»{1,45-46}.

1992-yil 8 - dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinganligi e'tiqod qilish kabi erkinlikka erishish uchun katta hissa qo'shdi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida: "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar" – deyilgan {2}.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasiga binoan hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi.

Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega {2}.

Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. Qolaversa, Konstitutsiyaning 71-moddasida ta'kidlanishicha, konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, Respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'iga va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati, maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi {2,}.

1998-yil 1- mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan yangi tahrirdagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Diniy tashkilot o'n sakkiz yoshga to'lgan va O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashayotgan yuz nafardan kam bo'lmagan fuqarolarning tashabbuslari bilan tuziladi.

Tegishli konfessiyaga qonuni qabul qilindi.

1995-yil Toshkent shahrida «Yagona osmon ostida birgalikda yashayman» _deb nomlangan xalqaro xristian-musulmon konferensiyasi bo'lib o'tdi. Unda Markaziy Osiyoning musulmon va pravoslav ruhoniylari, BMT vakillari va umumjahon cherkovlar kengashi delegatlari ishtirok etdilar.

Xorijdan kelgan mehmonlar O'zbekistonda dinlarga bo'lgan hurmat va totuvlikni ko'rib mamlakatda demokratik davlat shakllanayotganiga guvoh bo'lishdi.

Toshkent va O'rta Osiyo arxiyepiskopi Vladimir (Ikim): «Din –samoviy ishdir, siyosat – dunyoviy ishdir, din peshvolarining siyosatga aralashishlari kerak emas, ular ta'lim-tarbiyaberishlari lozim», – deb ta'kidlaydi {3,b-45}.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurashid Qori Bahromov. Mustaqillik va vijdon erkinligi // demokratiya va inson huquqlari. Toshkent, 1999-yil, N°-34 , B-45
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent , 2023 -yil, B-11-22-38.
3. Владимир (Иким). Ма'naviyatning gullashi. Mustaqillik va dinlararo totuvlik // Demokrartlashtirish va inson huquqlari -1999- N°41- B.45